

Sizning hikoyangiz Uzbekistan Airways bort jurnalida

2023 3 Fevral

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi yo'lovchilarning sayohatlari haqidagi qiziqarli hikoyalarni to'plamoqda. Sayohatdan qolgan eng yorqin xotiralaringiz bilan bo'lishing va o'z hikoyalaringizni "Uzbekistan Airways" bort jurnalining bahorgi sonida chop etish imkoniyatini qo'lga kiriting.

Ushbu tashabbus Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bilan sayohat tajribasiga ega bo'lgan yo'lovchilarning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Sayohatingiz haqidagi hikoyani suratlar bilan 2023-yilning 15-fevraliga qadar o'zbek, rus yoki ingliz tillarida konkurs@uzairways.com elektron manziliga yuborishingiz mumkin. Matn hajmi 1100 ta belgidan oshmasligi kerak. 16 yoshdan yuqori barcha O'zbekiston va xorijiy davlatlar fuqarolari o'z matnlarini yuborishlari mumkin.

Barcha hikoyalar Uzbekistan Airways bort jurnali tahririyati tomonidan ko'rib chiqiladi va ularning eng yaxshilari mualliflarning roziligi bilan bort jurnali sahifalarida chop etiladi.